



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH METOD VA VOSITALARI

*Fag'ona Davlat Universiteti filologiya fanlari doktori  
(DSc), dotsent Yuladasheva Dilafruz [yuldilaf@mail.ru](mailto:yuldilaf@mail.ru)*

*Farg'ona Davlat Universiteti,  
Ta'lim va tarbiya na'zariyasi va metodikasi  
(maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi,  
1-bosqich magistranti To'ychiyeva Shoxidaxon Qaxramon qizi  
[shohidatuychiyeva95@gmail.com](mailto:shohidatuychiyeva95@gmail.com)*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15255123>

**Annotatsiya.** Maqolada bolalarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishning ahamiyati va metodlari, nutqning bolalar uchun eng muhim aloqa vositasi ekanligi va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutqiy kompetensiyani shakllantirishdagi metod va vositalar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** nutqiy kompetensiya, bolalar, metod, vosita, texnologiyalar, o'yin, nutqni rivojlantirish, muloqot ko'nikmalari.

**Kirish.** Bolalarda nutqiy kompetensiyani shakllantirish ta'lim va tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu davrda nafaqat kelajakdagi ta'limiy yutuqlar, balki shaxsni rivojlantirish uchun ham asoslar qo'yiladi. Nutq — aloqa vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning rivojlanishi bolaning psixik va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Lug'atni mustahkamlash va faollashtirish metodlari bu o'yinchoqlar, rasmlarni, ko'zdan kechirish, didaktik o'yinlar, so'zli mashqlar va boshq. Lug'at ishining metod va usullari Bolalarning lug'ati ularga atrofdagi olamni tanishtirish bilan bir vaqtda o'sib boradi. Lug'atni shakllantirish jarayonida tarbiyachi bolalarning psixologik jarayonlarini, ularning aqliy qobiliyatlarini: sezgi, diqqat-e'tibor, xotira, fikrlash, (kuzatish) kuzatuvchanligini rivojlantiradi.

K.D.Ushinskiy o'zining "Ona tili so'zlari" maqolasida bolani ona tili, ona tilidagi so'zlar orqali tarbiyalash masalasini qo'ydi. Chunki xalqchilik dastlab ona tilida o'z ifodasini topadi. Bolaning shaxsiyati, bilimi, malakasi, ma'naviy qiyofasi ana shu til ta'sirida shakllanadi.

Maktabgacha yosh — kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek, nutq modellari bilan tanishishning faol davri hisoblanadi. Bolaning kelajakdagi ta'limidagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan shu davrda nutqning samarali rivojlanishiga bog'liq. Nutq ko'nikmalari xotira, diqqat va tasavvurning rivojlanishiga ham ta'sir qiladi.

Bugungi kunda texnologiyalarning tez rivojlanib borayotganligi, ta'limda yangiliklarni joriy etish va bolalarni tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlarni saqlagan holda ularni birlashtirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy texnologiyalar bolalarning madaniy o'zligini shakllantirishdagi va turli ilova va texnologiyalaryordamida ta'limni yanada samarali qilishda katta rol o'ynaydi. So'nggi yillarda multimediya va raqamli ta'lim vositalarini ta'limda keng qo'llanib kelinayotgani va u rivojlanib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'limda multimediya texnologiyalaridan foydalanish nutq ko'nikmalarining yaxshilanishiga yordam beradi. Z.ShAbdurahmonova (2015) tadqiqotlariga ko'ra, multimediya texnologiyalaridan foydalanish bolalarning til va nutqni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi.

Dialogik muloqot – metodi nutqni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu metod bolalar va kattalar o'rtasidagi faol o'zaro aloqaga asoslanadi. Bilamizki bolalar taqlidchan bo'ladilar va ular har jabhada shu qatorda talafuzda ham kattalarga va o'z atrofida qiladigan taqlid qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachining nutqiga ayniqsa katta talab qo'yiladi. Tarbiyachining nutqi tushunarlilik, aniqligi, jonlilik, ishonarlilik, to'g'riligi va hokozalar bilan ajralib turishi kerak, agar unda hammadan qolgan, bir qolipdagi fikrlar ko'p bo'lsa bu nutq natija bermaydi. Nutqning ta'sirchan bo'lishi, uning bolalarga ta'sir etishida intonatsiya muhim ahamiyatga ega.



Pedagog va olimlar bolalarda nutqni shakllantirish uchun turli metodlarni ishlab chiqargan va ularni amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishgan. O‘yin metodlari, muloqot va ijodiy yondashuvlar bolalarni ushbu jarayonga faol jalb qilish orqali nutqni samarali rivojlantirishga qaratilgan.

Nutqiy kompetensiyani shakllantirishning yetakchi metodlaridan biri — o‘yin metodi. O‘yin bolalarga nafaqat nutqni rivojlantirish, balki yangi so‘zlar, ifodalar va grammatika konstruksiyalarini qiziqarli va o‘z hohishlari bilan o‘rganish imkonini beradi. Pedagog o‘yin metodlarini qo‘llaganda turli vaziyatlar yaratish orqali bolalarga yangi so‘zlar, iboralar o‘rgatishi, ularni qiziqarli mavzularda muloqotga jalb qilishi mumkin bo‘ladi. D.M.Muxamedova (2016) tadqiqotlariga ko‘ra, o‘yin texnologiyalaridan foydalanish nutq rivojlanishini nafaqat til bilimlarini, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi.

Maktabgacha ta’limda bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi maxsus, xususiy vazifalar amalga oshiriladi:

- Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o‘stirish, lug‘atini boyitish. Bolalarni tevarak- atrofdagi buyumlar, hodisalar, o‘simliklar, hayvonot dunyosi, kattalar mehnati va hokazolar bilan tanishtirish jarayonida ularning nomlarini, sifatlarini, xususiyatlarini, xarakterlarini so‘zlar bilan aytamiz.

- Nutqning grammatik tomonini shakllantirish. Lug‘at tilning qurilish materiali hisoblanadi.

- Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. Bola, eng avvalo, tilning tovush tomonini egallashi kerak, ya’ni tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishi lozim. Bunda biz avvalo tabiatdagi, atrof-olamdagi tovushlarga taqlid qildirish orqali rivojlantirib boramiz.

- So‘zlashuv nutqini (dialogik) shakllantirish. Bolalarga bilim va tarbiya berishda so‘zlashuv nutqiga (dialogik) o‘rgatish katta ahamiyatga egadir.

- Hikoya qilishga (monologik nutqqa) o‘rgatish. Bolalarni maktabga tayyorlashda monolog nutqni rivojlantirish juda muhimdir. Bunda bolalarga qayta hikoya qildirish metodi katta yordam beradi.

**Xulosa.** Bolalarda nutqiy kompetensiyani shakllantirish nafaqat kelajakdagi ta’lim muvaffaqiyatini, balki umumiy shaxsiy rivojlanishning asoslarini ham qo‘yadi. Bu jarayonda an’anaviy pedagogik usullar bilan birga innovatsion texnologiyalarning roli oshib bormoqda. Nutq rivojlanishining muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun barcha usullarni kompleks ravishda qo‘llash zarur, chunki bu bolaning o‘zini ifoda etish qobiliyatini kengaytiradi va uning dunyoqarashini boyitadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Q.Shodiyeva. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2011. 5-bet.
2. Sh.Sh.Nizomova. “Bolalar nutqini o‘stirish nazariyasi va texnologiyalari”. O‘quv qo‘llanma. Buxoro – 2022. 34-bet
3. S.X.Jalilova, S.M.Aripova. “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi”. “Faylasuflar” nashriyoti. Toshkent – 2017. 162-bet.
4. D.R.Babayeva. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”. Toshkent–2018
5. M.Asqarova va boshqalar. “Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish”. Toshkent – 2001.
6. Sobirovich, S. I., & Kizi, T. S. Q. (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyasida milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analarni zamonaviy texnologiyalar orqali singdirish. Eurasian Journal of Technology and Innovation, 3(1), 33-36. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarning-tarbiyasida-milliy-urf-odatlar-qadriyatlar-va-an-analarni-zamonaviy-texnologiyalar-orqali>